

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

O‘ZBEKBADIIY MATNLARIDA BAXT VA BAXTSIZLIK LEKSEMASINING SEMANTIK JIHA TLARI

T.K.Mardiyev

SamISI, dotsenti.

“Tillarni o‘qitish” kafedrası mudiri.

Jaxongir Shamsiyev

Bayjanov Nurbol

SamISI, Ik-824 guruh talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada an‘anaviy madaniyatga ko‘ra, *baxt* va *baxtsizlik* tuyg‘ulari inson yoki jamiyatning qadriyatlar, afzalliklar va moddiy boyliklar haqidagi tushunchalari va g‘oyalari tizimini qamrab olgan kategoriya sifatida tushuniladi. Maqolada shuningdek, *baxt* tuyg‘usining etimologik tahlilga ko‘ra tojikcha, arabch qanday ma‘noni anglatishni, mazkur tillarda mavjud bo‘gan izohli lug‘tlar yordamida qiyosiy tahlili berilgan.

Kalit so‘z: *Baxt* va *quvonch*, *shodlik*, *oqibat*, *mexr*, *istak*, *iliq munosabat*, *e‘tibor*, *lingvomadaniy*, *til va madaniyat*, *tafakkur*, *emotsional*, *axloqiy*, *tuyg‘ular*, *lisoniy*, *hissiy*, *verbal*, *qadriyatlar*.

SEMANTIC ASPECTS OF THE LEXEMES HAPPINESS AND UNHAPPINESS IN UZBEK LITERARY TEXTS

Annotation: This article discusses the feelings of happiness and unhappiness according to traditional culture, which are understood as categories encompassing the system of values, preferences, and ideas about material wealth of an individual or society. The article also provides a comparative analysis, based on the etymological analysis of the concept of happiness, to explain the meaning of the term in Tajik and Arabic languages, using explanatory dictionaries available in these languages.

Keywords: Happiness and joy, pleasure, consequences, love, desire, warm relations, attention, linguocultural, language and culture, reflection, emotional, ethical, feelings, linguistic, sensory, verbal, values.

В СЕМАНТИЧЕСКИХ АСПЕКТАХ ЛЕКСЕМ БАХТ И НЕСЧАСТЬЕ В УЗБЕКСКИХ ЛИТЕРАТУРНЫХ ТЕКСТАХ

Аннотация: В данной статье рассматриваются чувства счастья и несчастья с точки зрения традиционной культуры, которые понимаются как категории, охватывающие

систему ценностей, предпочтений и идей о материальном богатстве индивида или общества. В статье также представлено сравнительное исследование, основанное на этимологическом анализе концепта счастья, с объяснением значения этого термина на таджикском и арабском языках, с использованием объяснительных словарей, доступных на этих языках.

Ключевые слова: Счастье и радость, удовольствие, последствия, любовь, желание, теплые отношения, внимание, лингвокультурное, язык и культура, размышления, эмоциональное, этическое, чувства, лингвистическое, сенсорное, вербальное, ценности.

Kirish.Ma'lumki, an'anaviy madaniyatga ko'ra, *baxt va baxtsizlik*tuyg'usiinson yoki jamiyatning qadriyatlar, afzalliklar va moddiy boyliklar haqidagi tushunchalari va g'oyalari tizimini qamrab olgan kategoriya sifatida tushuniladi. Jamiyatning lingvistik ongida *baxt* boylik tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, *baxt* salomatlik, yaxshi hayot, mol-mulk, boylik, aql-zakovat, bilim, ko'nikma, san'at va boshqa tushunchalar bilan aloqador bo'lsa *baxtsizlik*tuyg'usi buning aksidir.

Insonning bilimi, hayotiy tajribasi ortib borar ekan, uning baxt-saodat haqidagi tasavvurlari o'zgarib, shakllanib boraveradi. Insoniyat tarixiga e'tibor bilan qarasa, ushbu tushuncha yoki konsept to'g'risidagi insonlarning fikrlari, g'oya va tasavvurlari izchillik bilan bog'lanib borganligini kuzatish mumkin. O'tmish mutafakkir olimlari o'z asarlarida *baxt* tuyg'sini turlicha holatlarda namoyon bo'lishini isbotlab, ijtimoiy hayotda insonning eng oliy tuyg'ularidan biri ekanligini ta'kidlaganlar. Bu borada xalq tilida ham juda ko'p hikoya va rivoyatlar, hikmat va maqollar - paremiyalar yuzaga keltirilgan.

O'zbek badiiy adabiyoti matnlarida ko'p hollarda muhabbatga erishish *baxt* tushunchasiga bog'lanib ketadi. *Baxt* o'ziga xos tuyg'u, ya'ni baxtli hayot mazmuniga erishish tushunchasini ifodalaydi hayot hamda bunday baxtga erishmaslik xususiyatlari ham mavjud bo'lib, *baxtsizlik* diada (ikkilik) konseptini yuzaga chiqaradi. Diniy adabiyotlarda ham insonlar o'rtasidagi baxt va baxtsizlik dualligi Allohning qudrati bilan bog'liq bo'ladi. Baxt va baxtsizlik dualligi nafaqat ilohiy kuchlarning ta'sir etish obyekti, balki, o'z erki va insonga ta'sir etish qobiliyatini ko'rsatuvchi yaxshiliklar obyekti ham hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Ushbu tushuncha to'g'risida qator tilshunos olimlarimiz o'zlarining qimmatli fikrlarini berib o'tishgan. Chunonchi, o'zbek tilshunosligida G'.Salomovning maqol va idiomalar tarjimai bo'yicha amalga oshirgan tadqiqotlari, Sh.Rahmatullaevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati", M.Abdurahimovning "O'zbekcha-Ruscha aforizmlar lug'ati", T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, A.Musoqulovning "O'zbek xalq maqollari" to'plamlari; Sh Shomaqsudov, Sh.Shorahmedovning "Ma'nolar maxzani"; Sh.Shomammedovning "Donolar bisotidan"; Sh.Abdurazzoqovaning "Tafakkur gulshani" (tarjimalari); Hamidjon Homidiy, Mahmud Hasaniyning "Mashriqzamin hikmat bo'stoni", xususan, H.Berdiyev, R.Rasulovning "O'zbek

tilining paremiologik lug‘ati”; U.Sanaqulovning “Mahmud Koshg‘ariy hikmatlari” kabi kitoblarida tilimizdagi madaniy- axloqiy qadriyatlar aks etgan til birliklari to‘planganligini kuzatish mumkin. Qator yillar davomida tilshunoslikning ushbu bo‘limi lingvomadaniy masalalarni o‘rganishga bag‘ishlangan ishlarda ta‘kidlangan ediki, maqol va matallar tilning milliy o‘ziga xos birliklari hisoblanib, xalqning madaniy imkoniyatlarini oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada asosan, tavsifiy, chog‘ishtirma, konseptual tahlil usullaridan hamda til nazariyasi, madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasida qo‘llaniladigan ilmiy metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalari. Ma‘lumki, o‘zbek tilida *baxt* va *baxtsizlik* leksemalari o‘zining etimologiyasiga ega. *Baxt* tushunchasi etimologik tahlilga ko‘ra tojikcha ot “mamnunlik holati” ma‘nosini anglatadi. Bu otdan o‘zbek tilida *baxtli*, *baxtsiz sifatlari*, *baxtsizlik* oti yasalgan, *baxt-iqbol*, *baxt-saodat juft otlari*, *baxti ochilsin*, *baxti qora*, *baxtga qarshi* iboralari tuzilgan. Ushbu maqolada biz *baxt* va *baxtsizlik* tushunchalarining semantikasi haqida o‘zbek maqol va matallarida ko‘p misollar uchratishimiz mumkin.

Izlanishlar natijasiga ko‘ra, o‘zbek tilining etimologik lug‘atidan foydalanilgan ma‘lumotlarda quyidagilarni ko‘rib chiqishimiz mumkin .

Baxt - fors-tojikchada— taqdir; nasiba, ulush ma‘nolarini anglatib, quyidagi ma‘noviy xususiyatlariga ega hisoblanadi. Quyida esa *baxt* so‘zining o‘zbek tilidagi *nasiba*, *ulush*, *taqdir* so‘zlari bilan bog‘liqligini va ma‘noviy xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz:

1. Kishining o‘z faoliyati natijalaridan, hayotda qo‘lga kiritgan yutuqlaridan to‘la qoniqishi, yashash tarzidan mamnunligi, muayyan maqsadga yetgani, orzu-umidining ushalihi sifatida namoyon bo‘ladigan ma‘naviy-axloqiy tushuncha.

2. Hayot (turmush) dan to‘la mamnunlik va bearmonlik holati; saodat, qut.*Mehnat — baxt keltirar* [9, 14].*Ona-yer nafasiga, mehriга, inoqlariga to‘yib yashashdan ortiq baxt bormi?* [4,94.]Maqol va matallarning tahlili, shuningdek, o‘rganilayotgan tushunchalarning kognitiv belgilarini, *baxt* va *baxtsizlik*ning tabiati va xarakterini aniqlashtirishi mumkin, ularning insonlar hayotidagi rolini aniqlash va qarama-qarshiliklarni o‘rganish mumkin. Maqollarning tarkibiy va ma‘no jihatdan tashkil etilishini har tomonlama tahlil qilish bir yoki bir necha tushunchalar bilan bog‘langan qiymatga ega bo‘ladi. *Masalan: Yaxshilik bilan yomonlik egizak/ Yaxshilik va yomonlik abadiy hamroh; Tun o‘rnida kun keladi/ Yomon ob-havodan keyin quyoshli kunlar keladi; Qiyinchiliksiz rohat yo‘q* kabi paremalarda umid, taqdir tushunchalari o‘z aksini topgan. Etimologiyaga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “baxt bak” (*omad,quvonch*) va “kut-bliss” (*ijobiy hayot muvozanati, hayotdan qoniqish*) tushunchalari bir-biridan farq qiladigan va bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan ikki hodisa sifatida paydo bo‘lgan va rivojlangan. Turkiy madaniyatlarining bosqichma-bosqich dunyoviylashuvi natijasida *baxt konsepti* o‘zining diniy yo‘nalishini yo‘qota boshladi va asta-sekin ma‘no jihatdan “baxt-bak” tushunchasiga yaqinlasha boshladi. Jumladan, qadimgi tilda “kut” so‘zi *arabcha* “bak” so‘zi bilan bir xil semantikaga ega bo‘lgan [8, 339]. “Baq”, “bereke” (*mo‘llik*) so‘zlarining semantik tuzilishining ildizi etnik guruhning lingvistik ongidan kelib chiqqan bo‘lib, pirovardida faol

lug‘atni “kut” (*baxt*) va “kutayu” (*baxtli bo‘lmoq*) atamalari bilan siqib chiqaradi. Taxmin qilish mumkinki, “qut” so‘zi ko‘proq “bak” so‘zi bilan parallel qo‘llanib, asta-sekin *bak-baxtga* aylanib, “baqit” (*bak+kut*) so‘zning semantikasini shakllantirgan. Shuning uchun og‘zaki ifoda *Qutlug‘ bo‘lsin!* hozirda tez-tez ishlatiladi. Masalan: *Tug‘ilgan kuning qutlug‘ bo‘lsin! Baxt qushing qutlug‘ bo‘lsin!* (*Kuyovga aytiladigan tilak bu yerda kelin “baxt qushi” sifatida timsollangan.*) Madaniy konsept nomini o‘z ichiga olgan barqaror odob-axloq formulasining mavjudligi bu konseptning keng qo‘llanilishini ko‘rsatadi. Ya‘ni misollarda ko‘rishimiz mumkin: *Baxting ochilsin! Baxt qushi boshingga qo‘nsin!* (*Baxtli bo‘ling!*) [5, 45].

Badiiy adabiyotlarda insonlar o‘rtasidagi baxt va baxtsizlik dualligi tolening muruvvati bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu duallik nafaqat oliy kuchlarning ta‘sir etish obyekti, balki, o‘z erki va insonga ta‘sir etish qobiliyatini ko‘rsatuvchi yaxshiliklar obyekti ham bo‘lishi mumkin. *Baxt* o‘ziga xos tuyg‘u, ya‘ni baxtli hayot mazmuniga erishish tushunchasini ifodalaydi hamda bunday baxtga erishmaslik xususiyatlari ham mavjud bo‘lib, *baxtsizlik diada konseptini* yuzaga chiqaradi. *Baxt baxtsizlik* bilan yonma-yon yashaydi. Baxtga asta-sekin erishilsa, baxtsizlik esa qanot qoqib keladi. Baxtsizlikdan omadsizlik ma‘nosi kelib chiqadi. Omadsizlik baxtsiz hodisadir. Bunda kutilmagan ko‘ngilsizlik namoyon bo‘ladi. Hozirgi vaqtda baxt va baxtsizlik dualligi turli sohalar bilan ham bog‘lanadi.

Baxt har kimda har xil tushuniladi. Chunonchi, donishmandlardan biri shunday deydi: *Agar faqat baxtli bo‘lishgina maqsad qilib qo‘yilsa, bunga tezda erishish mumkin. Lekin odamlar ko‘pinch boshqalardan ko‘ra baxtliroq bo‘lishni istaydilarki, buning diyarli iloji yo‘q chunki aslida bizga o‘zgalarning baxti hamisha ko‘roq bo‘lib ko‘rinadi* [3, 64].

Manbalardan seziladiki, *baxt – baxtsizlik* kabi konseptual tushunchalar barcha millat adabiyotida keng e‘tirof etiladi. *Baxt* konseptida ham duallik xususiyati mavjud. Bu *baxt va baxtsizlik* leksemalari mazmunida aks etadi. Zero, *baxt* omad keltiradi. *Baxtsizlik* esa kulfat keltiradi. *Baxt* Alloh tomonidan berilgan buyuk ne‘mat, *baxtsizlik* esa Alloh tomonidan berilgan ne‘matdan mahrum etilishdir. *Baxt* konseptining qarama-qarshi ma‘nosi *baxtsizlik* bo‘lib, ular bir-biri bilan tarkibi jihatdan bog‘lanadi. Ma‘lumki, maqol va matallar strukturaviy va semantik jihatdan tuzilgan tizim hisoblanadi. Ular tilning barcha so‘zlovchilariga tegishli bo‘lgan ong va madaniyat konstantlarini o‘rnatadi, dunyoni baholash tizimini belgilaydi va asosiy tushunchalarni ajratish va tahlil qilish imkonini beradi.

Baxt va baxtsizlik quyidagi frazeologik birliklar bilan bog‘langan: *Baxt –o‘zgaruvchan; Boshingga baxt qo‘nganda, sen dono odamsan!* Shuningdek, ijobiy his-yuyg‘ular bilan bog‘liq bo‘lgan maqol va matallar ham mavjud. Masalan: *Baxtdan boshi aylangan ya‘ni juda xursand ma‘nosida.* Chunonchi, baxtsizlikni ifodalovchi qator misollar mavjud bo‘lib, u kambag‘allik, qismat, muammo kabi tushunchalar bilan o‘zaro bog‘lanadi. Masalan: *Qismatingdan qochib qutula olmaysan/ Peshonangga yozilgani bo‘ladi. Muammo oyog‘ing ostida kabilar.*

Darhaqiqat, *baxt* tuyg‘usi mazmunida qadr-qimmatga ega bo‘lgan va inson juda xohlaydigan narsa yotadi. Ammo baxtsizlikda esa buning aksi namoyon bo‘ladi.

Xulosa va takliflar.

- Qiyoslanayotgan xar ikki tushunchaning lingvomadaniy jihatdan sezilarli darajada farqli tomonlarini badiiy matnlar tarkibida ko‘rishimiz mumkin.

- An‘anaviy madaniyatga ko‘ra, *baxt va baxtsizlik* tuyg‘usi inson yoki jamiyatning qadriyatlar, afzalliklar va moddiy boyliklar haqidagi tushunchalari va g‘oyalari tizimini qamrab olgan kategoriya sifatida tushuniladi.

- Muxtasar qilib aytganda, semantik makondagi konsepsiya o‘zining paradigmatic, sintagmatic va so‘z yasash aloqalarini, shuningdek, belgining ekspressiv va tasviriy funksiyalari bilan bog‘liq barcha pragmatik ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Tushuncha semantikasining yana bir komponenti – bu so‘zning kognitiv xotirasi belgining semantik xususiyatlari, uning azaliy maqsadi va tizim tilining ma‘naviy qadriyatlari bilan bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdulla Qahhor. Sarob. – T.: “Sharq”, 1995. – 237b.
2. Abdulla Qodiriy . O‘tkan kunlar. Sharq. – 1975. – 167
3. Abdurazzoqova Sh. Tafakkur gulshani. –T.: - 1989. – 462.
4. Ashurov T. Oq ot. – T.: 2000. – 94
5. Nurov S. “Maysalarni ayoz urmaydi”. – T.: 2000. – 45
6. Oybek “Bolalik”. T.: - 2000. – 26b.
7. Oydin. Chaqaloqqa chakmoncha. – T.: 22.
8. Qadimgi turkiy tillar lug‘ati. – T.: 1969. – 339.
9. Sodiqova M. “Maqollar va frazeologiya mohiyatiga doir”. –T.: 2005. -14b.
10. www.arxiv.uz.